

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 1- yanvar holatiga viloyat doimiy aholisining soni 3 896,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 76,5 ming kishiga yoki 2,0 % ga ko'paydi. Shundan, 2 188,5 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 56,2 %) va 1 707,9 ming kishi – qishloq joylarida (43,8 %) istiqomat qiladi.

### Viloyat hududi va aholi zichligi (2022- yil 1-yanvar holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>6,759</b>	<b>3896,4</b>	<b>576,5</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877 y.	0,1003	299,2	2982,7
Qo'qon	X asr	0,037	259,7	7019,4
Quvasoy	14.06.1954 y.	0,264	96,9	367,0
Marg'ilon	X asr	0,041	242,5	5915,4
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 y.	0,631	219,1	347,2
Qo'shtepa	16.04.1952 y.	0,368	198,4	539,1
Bog'dod	31.12.1964 y.	0,333	223,3	670,7
Buvayda	26.12.1973 y.	0,279	236,2	846,4
Beshariq	29.09.1926 y.	0,774	234,6	303,1
Quva	10.02.1939 y.	0,438	266,0	607,2
Uchko'prik	29.09.1926 y.	0,275	237,3	862,9
Rishton	09.01.1967 y.	0,307	208,4	678,7
So'x	27.02.1990 y.	0,221	80,6	364,8
Toshloq	12.04.1973 y.	0,243	209,7	863,0
O'zbekiston	17.04.1963 y.	0,689	246,4	357,6
Farg'ona	22.02.1964 y.	0,6117	220,9	361,1
Dang'ara	07.12.1970 y.	0,435	180,8	415,7
Furqat	09.04.1992 y.	0,305	121,8	399,3
Yozyovon	27.12.1980 y.	0,407	114,7	281,9

#### Farg‘ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi

1938 yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,759 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 %ga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyaning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ira qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo‘linishiga ko‘ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 041 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tashkil topib, ularda 3 896,4 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg‘ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog‘ tizmalari Farg‘ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to‘siq turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo‘tadil. Yozi issiq, iyulning o‘rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o‘rtacha harorati -3°S. Vegetasiya davri 217 kun, yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Tuproqlari bo‘z, qo‘ng‘ir, o‘tloqi, botqoq tuproqlar, qumtosh, mergel chaqirtoshlardan iborat bo‘lib, ekin ekilmaydigan tekisliklar qismida turli o‘simliklar, tog‘ yon bag‘irlarida pista, bodom o‘sadi. Yovvoyi hayvonlar (bo‘ri, tulki, qobon va boshqalar) kam uchraydi, sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar, suv havzalarida baliqlar bor.


Geografik joylashuvi, tabiiy, mineral xom-ashyo resurslarining mavjudligi viloyatda azotli va fosforli o‘g‘itlar, neft mahsulotlari, ohaktosh, sog‘ tuproqlar (g‘isht, cherepisa uchun xom-ashyo), marmar, sement xom-ashyosi, shag‘al, yengil sanoat, xususan to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish uchun yanada qulaydir. Viloyatda foydali qazilmalarning 43 turi aniqlangan bo‘lib, ulardan 21 tasi o‘zlashtirilmogda.

**Farg‘ona viloyati hududlari**  
**bo‘yicha doimiy aholi soni to‘g‘risida ma‘lumot**  
*(2022- yilning 1-yanvar holatiga )*

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>			<i>Doimiy aholi sonining o‘shish sur‘ati, %da</i>		
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>3 896,4</b>	<b>2 188,5</b>	<b>1 707,9</b>	<b>102,0</b>	<b>56,3</b>	<b>43,7</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	299,2	299,2	-	101,9	100,0	-
Qo‘qon	259,7	259,7	-	101,3	100,0	-
Quvasoy	96,9	54,4	42,4	102,0	56,2	43,7
Mapg‘ilon	242,5	242,5	-	101,6	100,0	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	219,1	164,9	54,1	102,2	75,3	24,7
Qo‘shtepa	198,4	76,5	121,9	102,6	38,5	61,4
Bog‘dod	223,3	114,4	109,0	102,0	51,2	48,8
Buvayda	236,2	110,7	125,4	102,2	46,9	53,1
Beshariq	234,6	82,4	152,2	101,7	35,1	64,9
Quva	266,0	123,2	142,8	101,8	46,3	53,7
Uchko‘prik	237,3	43,2	194,1	102,5	18,2	81,8
Rishton	208,4	132,9	75,4	101,9	63,8	36,2
So‘x	80,6	51,1	29,6	101,9	63,4	36,6
Toshloq	209,7	48,5	161,3	102,2	23,1	76,9
O‘zbekiston	246,4	106,6	139,8	101,9	43,2	56,8
Farg‘ona	220,9	138,5	82,5	102,1	62,6	37,4
Dang‘ara	180,8	42,2	138,6	102,5	23,3	76,7
Furqat	121,8	28,6	93,1	102,1	23,5	76,5
Yozyovon	114,7	69,0	45,7	102,3	60,2	39,8

Shaharlar ichida eng ko'p aholi Farg'ona shahrida 299,2 ming kishi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 %ga o'sgan) va tumanlarda eng ko'p aholi Quva tumanida bo'lib, 266,0 ming kishini tashkil qiladi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 %ga o'sgan).

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2022-yil 1-yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



**Doimiy aholi sonining yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi**  
( yanvar-dekabr; kishi)

	2019- yil		2020- yil	
	soni	ulushi, %da	soni	ulushi, %da
<b>Jami aholi soni</b>	<b>3 752 034</b>	<b>100,0</b>	<b>3 819 963</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan yoshlari, yosh</i>				
0-2	240 623	6,4	258 592	6,8
3-6	302 940	8,1	303 619	8,0
7-13	466 858	12,4	479 589	12,5
14-17	220 957	5,9	224 323	5,9
18-24	422 365	11,3	402 734	10,5
25-30	424 939	11,3	433 466	11,3
31-40	580 558	15,5	590 671	15,5
41-50	447 286	11,9	459 047	12,0
51-60	359 005	9,6	362 911	9,5
61-70	195 692	5,2	210 293	5,5
71 yosh va kattalar	92 796	2,5	94 718	2,5

\*Yosh boyicha korsatkichlar yulning may oyida tayor boladi

**Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi**  
( jami aholiga nisbatan, %da)

Viloyatda 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ayrim yosh guruhlarining jamiga nisbatan ulushi sezilarli o'sishi kuzatildi: o'tgan yildagiga nisbatan 0-2 yoshdagi aholi ulushi 6,8 % , jamiga nisbatan 0,4 % ga, 61-70 yoshdagi aholi ulushi 5,5 %ga jamiga nisbatan 0,3 %ga o'sdi.

Hamda aksincha, avvalgi yilga nisbatan 18-24 yoshdagi aholi ulushi sezilarli kamaydi va jamiga nisbatan 0,8 %ga farq berdi.

## Yanvar–dekabrda viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari


Ko‘rsatkichlar	ming kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Tug‘ilganlar	92979	99141	24,6	25,7
O‘lganlar	18544	18700	4,9	4,8
Nikohlar, <i>mingta</i>	34065	32732	9,0	8,5
Ajralishlar, <i>mingta</i>	2841	4285	0,8	1,1

**Tug‘ilish darajasi.** 2021- yilning yanvar–dekabrda tug‘ilganlar soni 99,1 ming kishini tashkil etdi va 2020- yilning shu davriga (93,0 ming kishi) nisbatan 6,2 ming kishiga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 25,7 promilleni tashkil qildi.

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning Uchko‘prik tumanida 25,9 dan 29,6 promillega, Oltiariq tumanida 25,0 dan 27,7 promille, Quvasoy shahrida 22,5 dan 23,0 promillega, o‘sishi kuzatildi.

### Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2022- yilning 1- yanvar holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



**Nikohlar va ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-dekabrda shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida 32732 ta nikohlar va 4285 ta ajralishlar ro‘yhatga olindi. Ming aholiga nisbatan 8,5 ta nikoh (2020 yilning tegishli davrida 7,6 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2020- yilning tegishli davrida – 0,7 ) to‘g‘ri keladi.

**Yanvar–dekabrda tuzilgan nikohlar  
va nikohdan ajralishlar soni**

*(birlikda)*

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
<b>Viloyat</b>	<b>34065</b>	<b>32732</b>	<b>2841</b>	<b>4285</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	2371	2333	393	618
Qo‘qon	1977	2017	330	447
Quvasoy	867	802	80	119
Mag‘ilon	2152	1984	155	317
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	2298	1985	159	227
Qo‘shtepa	1962	1859	129	199
Bog‘dod	1981	2010	178	212
Buvayda	2082	2106	125	201
Beshariq	1943	1850	172	185
Quva	2195	2062	105	194
Uchko‘prik	2052	2183	122	205
Rishton	1904	1757	131	199
So‘x	518	560	43	110
Toshloq	1853	1668	100	180
O‘zbekiston	2130	2027	232	248
Farg‘ona	1948	1991	146	249
Dang‘ara	1764	1567	109	172
Furqat	1110	1055	84	112
Yozyovon	958	916	48	91

**Migratsiya.** Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga ko‘chib kelganlar soni 10857 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 14868 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus -4011 kishiga (2020- yilning shu davrida – -6522 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg‘ilon shaharda (- 1007), Qo‘qon shaharda (-947) va Uzbekiston tumanida (-684) kuzatildi.


**Yanvar–dekabrda aholining migratsiya ko‘rsatkichlari**  
(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Viloyat</b>	<b>9675</b>	<b>10857</b>	<b>16197</b>	<b>14868</b>	<b>-6522</b>	<b>-4011</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg‘ona	3110	3518	2438	2420	672	1098
Qo‘qon	837	515	1493	1462	-656	-947
Quvasoy	421	611	334	429	87	182
Mapg‘ilon	804	568	1450	1575	-646	-1007
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	194	234	565	505	-371	-271
Qo‘shtepa	577	708	771	618	-194	90
Bog‘dod	409	215	596	658	-187	-443
Buvayda	179	300	980	562	-801	-262
Beshariq	180	258	1180	838	-1000	-580
Quva	156	164	756	791	-600	-627
Uchko‘prik	116	394	775	597	-659	-203
Rishton	342	280	721	608	-379	-328
So‘x	4	99	57	63	-53	36
Toshloq	483	469	746	677	-263	-208
O‘zbekiston	352	160	1010	844	-658	-684
Farg‘ona	847	922	868	905	-21	17
Dang‘ara	438	750	675	567	-237	183
Furqat	102	458	531	462	-429	-4
Yozyovon	124	234	251	287	-127	-53

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 311,1 ming so‘mni tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga nisbatan 12,1 %ga oshdi. Eng yuqori o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg‘ona shaharda 3 149,2 ming so‘mni, Qo‘kon shaharda 2 673,3 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.




**Yanvar-dekabr oylari davomida o'rtacha  
nominal hisoblangan ish haqi  
(ming so'mda)**



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

( 2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarisiz ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining eng yuqori miqdori moliya va sug'urta faoliyatiga to'g'ri kelib, 6 194,2 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich tashish va saqlashda 3378,3 axborot va aloqada 2940,3 va sanoat sohasida 2 987,0 ming so'mdan iborat bo'ldi.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-dekabr qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz, ming. so'mda)

	2020- yil	2021- yil	O'sish surati %da
<b>Viloyat</b>	<b>2091,6</b>	<b>2435,0</b>	<b>116,4</b>
<i>shaharlar</i>			
Farg'ona	2795,8	3280,3	117,3
Qo'qon	2311,1	2826,9	122,3
Quvasoy	2119,5	2401,1	113,3
Mag'ilon	1848,2	2133,6	115,4
<i>tumanlar</i>			
Oltiariq	1611,6	1694,4	105,1
Qo'shtepa	1841,4	2067,9	112,3
Bog'dod	1935,1	2182,3	112,8
Buvayda	1509,7	1773,1	117,4
Beshariq	1487,4	1723,3	115,9
Quva	1742,4	2001,1	114,8
Uchko'prik	1734,3	1943,9	112,1
Rishton	1732,2	2026,0	117,0
So'x	1752,6	2093,0	119,4
Toshloq	1976,7	2585,2	130,8
O'zbekiston	1715,5	1977,3	115,3
Farg'ona	1498,3	1952,8	130,3
Dang'ara	1591,5	1903,2	119,6
Furqat	1867,7	2136,6	114,4
Yozyovon	1888,8	2067,4	109,5

